
TEXNIKA DEHQONNING QANOTI

Bu gap bejiz emasligini dehqonchilikdan xabardor inson yaxshi biladi. Markaziy MMTPdan chopiq traktorlarini mavsumga qabul tadbirida ham bu gap bot-bot takrorlandi. Rishton tumanidagi mavjud chopiq traktorlari to'liq ta'mirdan chiqarildi. Viloyat hokimining tashabbusi bilan mana ikkinchi yildirki, texnikalar ko'rikdan o'tkazilib, nufuzli komissiya tomonidan qabul qilib olinadi. Tuman sektor rahbarlari, fermerlar, mexanizatorlar, qishloq xo'jaligiga dahldor tashkilotlar mutassaddilari ishtirokidagi yig'inda tuman hokimi dehqonchilik yili yakunlari, hozirda olib borilayotgan ishlar, kelgusida sotib olinishi ko'zlangan qishloq xo'jaligi texnikalari haqida batafsil gapirdi. Viloyat hokimining qishloq xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari Alibek Tursunov 2022 yilda tumanimizda erishilgan natijalarni e'tirof etib, paxtachilikda Rishton tajribasi iborasi qo'llanilishi ortida katta mehnat yotganini aytdi. -Markaziy Farg'ona yerlarida dehqonchilik qilib, viloyatda karvonboshilik qilish katta gap,--dedi A. Tursunov.- Viloyat hokimi sizlarni erishgan yutuqlaringiz bilan tabriklab, minnatdorchiligini yetkazishni so'radi. Bugungi Rishton fermieri yangilikka intiluvchan, o'z ustida ishlovchi kishilardir. Paxtaning 70 foiz mehnati texnika bilan. Shunday ekan, bugungi ta'mir, mexanizatorga yaratilgan sharoit muhim rol o'ynaydi. Viloyat IIBB boshlig'i, polkovnik Muhiddin Jo'raev rishtonliklarni erishgan yutuqlari bilan qutlab, yangi yilda bundanda, yaxshi natijalar bo'lishini tiladi. Xatmi qur'on o'qilib, duolar qilindi. Yaxshi niyatda jonliq so'yildi. Mexanizatorlarga ikki million so'mdan ish haqi, qimmatbaho sovg'alar tarqatildi.

Rishton tumani hokimligi axborot xizmati.

2022-12-27 16:26:37